

**SHAXSLARARO MUNOSABATLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK  
XUSUSIYARLARI**

*Andijon davlat pedagogika instituti:*

*Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi:*

***Alisherova Zulfiya Tolibjonovna***

*Andijon davlat pedagogika insituti:*

*Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi:*

***Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna***

*Andijon davlat pedagogika instituti:*

*Aniq fanlar fakulteti, Amaliy matematika yo'nalishi 1-kurs talabalari:*

***Mirzajonova Madina Shukurjon qizi***

***Karimjonova Zamiraxon Bozorboy qizi***

**Annostatsiya:** Maqolada shaxslar o'rtasida yuzaga kelayotgan muammoli vaziyatlar ya'ni muloqot, munosabatlaridagi muammolari haqida fikrlar yuritiladi. Albatta, shaxslararo munosabat deyilganda muloqot tushuniladi. Inson muloqotda shakllanadi, ya'ni shaxsga aylanadi. Shaxslar o'rtasidagi ko'p nizolarga ham shu muloqotga to'g'ri kirisha olmayotgani sabab bo'lmoqda. Muloqot ikki va undan ortiq kishilar o'rtasida sodir bo'ladi. Muloqotni to'g'ri tashkil qilish esa shaxslarning xarakter, qobiliyatlaari, qiziqishlari va ayni damdagi maqsadlariga bog'liq, ya'ni ularning psixologik ahvoliga bog'liq bo'ladi. Maqolaning asosiy maqsadi shaxslar o'rtasidagi turli nizoli vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etishdir.

**Kalit so'zlar:** Muloqot, munosabat, shaxs, kommunikativ muloqot, interaktyiv muloqot, pertseptip muloqot, noverbal, verbal, reaksiya, psixologiya, psixolog

### ***Kirish***

Odamlar o'rtasidagi munosabatlar - bu amalga oshirilgan va ularga nisbatan javob reaksiyasidir. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganar ekanmiz, biz individ qanday qilib boshqa odamlar to'g'risida ma'lumot olishni, qanday qilib u boshqa odamlarni tushunishiga va ular bilan kontakt o'rnatishiga o'rganishini bilib olamiz. Har qanday muloqot jarayonida muomila ish harakat va unga nisbatan javob reaksiyasi mavjud va shunga ko'ra muloqot shakllari.

Muloqotga bo'lgan ehtiyoj odamning asosiy ehtiyojalari turkumiga kiradi. Muloqot bu-ikki yoki bir nechta odamning o'zaro xarakterdagi ma'lumotlarining almashunuvidan iborat bo'lib, u asosan bilish va emotsional boholovchi xarakterdagi ma'lumotlar almashunuvida iboratdir.

Muloqot ko'p qirrali vazifalarni bajaradi va shunga asosan ular klassifikatsiya qilinadi. O'zaro bo'g'liq uchta tomonini hisobga olgan holda muloqot funksiyalari quyidagi guruhlar ajratiladi:

Pertseptiv tamoni- muloqot jarayonida odamlarni bir-birlarini idrok etishi va tushunishi. Maxsus insoniy hissiyotlarning barchasi odamlarning muloqoti sharoitida paydo bo'ladi va rivojlanadi, ya'ni, yo emotsional holatlarining yaqinlashuvi, yo ularning utublarining ajralishi, yo o'zaro kuchayishi, yoki susayishi amalga oshadi.

Kommunikativ muloqot- informatsiyalar almashunuvi jarayoni. Insoniy muloqotda informatsiya almashunuvi o'ziga xos xususiyatga ega: bu jarayon har bir faol subyekt hisoblangan ikkita individ o'rtasida amalga oshadi; u albatta heriklarining fikrlari hissiyotlari va xulq atvorni o'zaro ta'sirini nazarda tutadi.

Interaktiv muloqot- muloqotda odamlarning o'zaro ta'siri jarayoni. Bu jarayonda odam o'z sherigi yoki sherikalari faoliyatining motivlariga. Dasturlariga, uning qaror qabul qilishiga hatti- harakatlarni bajarishi va nazorat qilishiga, hatto xulq-atvorini birgalikda qo'zg'atish va korreksiya qilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Dj.Rokfeller ishbilarmonlik faoliyatida muloqotni ahamiyatini yaxshi tushungan holda "odamlar bilan muloqotgachirisha olish malakasi xuddi qand yoki kofega o'xshagan, pulga sotib olinadigan tovardir. Men dunyodagi har qanday tovardan ko'ra ushbu malakaga ko'proq pul to'lashga tayyorman" – degan edi.

Muloqot jarayonida bir- bironi idrok erish va tushunishi:

Muloqotni idrok etish jarayonida muloqot sherigi to'g'risida shakllarga tasavvur bilan belgilanadi.

Idrok jarayoning murakkabligi shundaki, odamni informatsiyalarni qayta ishlash qobiliyati cheksiz emas. Muloqot sheigining obrazi shakllanishi jarayonida odam ko'pincha u to'g'risi ma'lum miqdordagi uzun- yiliq informatsiyalarga duch keladi va ularni o'pgina emotsional hamda psixologik omillarini hisobga olib bohodaydi. Ehiimoldan holi emaski, u o'zining tasavvurlariga mos keladigan va o'z maqsadlariga ko'ra ko'proq to'g'ri keladigan ma'lumotlarni e'tiborga oladi.

Bundan tashqari idrok jarayonini xato xulosalar ham buzishi mumkin. Informatsiya yetarli bo'lmagan holatda ham odam o'z suhbatdoshi to'g'risidagi xulosalarni o'zi bilib ulgurgan kam miqdordagi ma'limotlarga tayanib ko'radi, uning tasavvuri shakllangah esa, keyin qo'shimha ilingan ma'lumotlarn inobatga olmaydi.

Muloqotni barcha vositalari ikkita katta guruh: Verbal (nutqiy) va noverbal (nutqiy bo'lmagan) vositalarga ajratiladi. Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra suhbat jarayonida nutqiy muloqot 35%dan kam qismini tashkil etgan holda, 65%dan ziyod informatsiya noverbal vositalar yordamida uzatiladi.

Odamning noverbal xul-atvori uning psixik holati bilan chambarchas bog'langan va ularni ifodalash vositasi bo'lib hisoblanadi. Muloqotning noverbal vositalariga tananing barcha harakatlari, obozning intoniyasi xarakteriskasi, tahlil ta'sir, muloqotning makondagi tashkil etilishi kabilar kiradi.

Muloqot har doim fazoviy tashkil qilinadi. Fazoviy o'lchamlar orasida muloqotga kirishuvchilar orasidagi masofa muhim ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik olim E.Xoll muloqotga kirishuvchilar orasidagi masogalarni o'rganish natijasida bir-biridan farq qiluvchi quyidagi to'rtta oraliq masofani taklif etadi.

- intim masofa (0-45sm)-eng yaqin odamning muloqoti;
- shaxsiy masofa (45-120sm)- tanish odamlar bilan muloqot;
- ijtimoiy (1120-360sm)- ko'proq begona odamlar bilan muloqot va rasmiy muloqot

- ommaviy (360- va undan yuqori)- turli xil auditoriyalar orasida oldida chiqishlar.

Suhbatdoshlarning stol atrofida qanday joylashganliklari ham muloqot xarakterini belgilab beradi.

Muloqot jarayonida nafaqat emotsional holatlar uztiladi, balki informatsiyalar uzatiladi. Informatsiyalar mazmuni verbal va nutqiy shakllarda uztiladi. Informatsiyani uzatish jarayonida uning mazmuniga qisman yo'qotishlar sodir bo'ladi.

Fikrlar o'ylaniladi, nutqiy shakllga ega bo'ladi (100%)- aytiladi (80%)- eshitaladi (70%)- tushuniladi(60%)- xotira qoladi-(24%)

Ushbu sxemaga muvofiq birlamchi fikrning 4 dan 1 qismi esda qolishi aniq bo'lishiga qaramasdan odamlar baribir bir- birlarini tushunadilar. Informatsiyani tushunish korrektsiya qilib turiladi, chunki muloqot bu faqatgina informatsiya uzatish mas balki informatsiya alamshunuvi bo'lganligi sababli qaytarma aloqa ham o'zaro tushunishda muhim ro'l o'ynaydi.

Muloqotning asosiy mazmuni muloqot sherigiga ta'sir ko'rsatishni tashkil etadi. Muloqot jarayonida boshqa odamlarning hatti harakatlariga nisbatan doimiy reaksiya amalga oshadi. So'zlar orqasida har doim harakatlar turadi va bu muloqotga kirishar ekanmiz, biz doim "u nima qilyapti" degan savolga javob beramiz va bizning xulq-atvorimiz olingan javobdan kelib chiqib tashkil etiladi.

### Xulosa

Odamlar faoliyatini psixologik kuzatuvlardan ma'lumki, xulq-atvor xarakteriskasi to'plami odam kim bilan o'zaro ta'sirga kirishayotganiga qarab turlicha bo'ladi. Xulq-atvorning o'zgarishi bilan bog'liq amalga oshadi. Odam xulq-atvor sxemasi bilan psixikasi holati o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, buni E.Bern ongning tipik holatlari deb belgilaydi. Odamlar bir birlariga musnosabatlarini muloqotda ko'rsatadi, shuning uchun ham maqolada

muloqotga urg'u berilgan. Shaxslar munosabatga kirishayotganda ularning xarakteri, qobiliyati, qiziqishlari va albatta maqsadlari munosabatni bardavomligini ta'minlaydi. Munosabat asosini esa muloqot tashkil etadi. Hozirda psixologlarga eng ko'p murojaatlar shaxslarni bir birlari bilan munosabatlari o'rtasida bo'lmoqda. Bunga sabab shaxslarning muloqotni to'g'ri tashkil eta olmayotgani bo'lmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ivanov P.I, Zufarova M.E. Umumiy psixologiya
2. G'oziyev E.G'. Psixologiya.
3. Karimova V.M, Akramov F.A Psixologiya. O'quv qo'llanma.

Internet saytlari:

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.psychology.uz](http://www.psychology.uz)